O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MATERIALSHUNOSLIK INSTITUTI

2025-yil 28–30 aprel

AXBOROT XATI

“Yangi materiallar va quyosh texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi haqida

Hurmatli hamkasblar!

Sizni 2025-yil 28-30-aprel kunlari bo‘lib o‘tadigan “Yangi materiallar va quyosh texnologiyalari” xalqaro ilmiy konferensiyasida ishtirok etishga taklif qilamiz.

Konferensiyaning asosiy maqsadi ilmiy va amaliy axborot almashish, smart materiallarni ishlab chiqish, yangi materiallarni sintez qilish, ishlab chiqarish va qo‘llash sohasidagi muammolarni hal qilishdagi asosiy vazifalar va tendensiyalarni aniqlashdan iboratdir.

Konferensiya tili: ingliz.

Konferensiyada ishtirok etish uchun olimlar, doktorantlar, izlanuvchilar, yosh olimlar, biznes vakillari taklif etiladi.

Konferensiyaning asosiy mavzulari:

- Muvozanatsiz holatdagi xotira ta’siriga ega biotexnologiyadagi materiallar;

- Belgilangan xususiyatlarga ega nano va nanokompozit materiallar;

- “Yashil” energetika uchun materiallar.

Ishtirok etishni xohlovchilar ro‘yxatdan o‘tish formasini (1-ilova) to‘ldirib, 2025-yil 10-aprelga qadar info@imssolar.uz elektron pochta manziliga yuborishlarini so‘raymiz.

Ilmiy ishlar haqidagi tezislarni tashkiliy qo‘mita ko‘rib chiqishi va nashr etishi uchun 2025-yil 10-aprelga qadar info@imssolar.uz elektron pochta manziliga yuboring. Tezislarni topshirishga qo‘yiladigan talablar 2-ilovada keltirilmoqda.

Tezislar muallif taqdim etgan holatda nashr etiladi va retsenzentlar tomonidan tekshirilmaydi, ammo tahrir qilinishi mumkin.

Konferensiya tashkiliy qo‘mitasisi ushbu ma’lumotlarni Konferensiyada ishtirok etishga qiziqish bildirgan professor-o‘qituvchilar, universitet xodimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ixtisoslashtirilgan korxona va tashkilotlar o‘rtasida tarqatganingiz uchun sizdan minnatdor bo‘ladi.

Konferensiya tadbirlari haqidagi barcha ma’lumotlar Materialshunoslik institutining www.imssolar.uz saytida “Konferensiya 2025” bo‘limida mavjud.

Ilova 1

ISHTIROKCHI SAVOLNOMASI

Familiya, ism, otasining ismi;
Ish joyi;
Lavozimi;
Tug‘ilgan yili;
Telefon raqami;
Elektron pochta manzili;
Dissertatsiya nomi;
Tezis nomi;
Quyidagi shaklda ishtirok etish mumkin:
og‘zaki ma’ruza
stend taqdimoti
tezis nashri.

Ilova 2

TEZISNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

Til: ingliz

Microsoft Word dagi docx kengaytmali matn;

Sahifa formati – A4, kitob shaklida. Sahifalar raqamlanmaydi;

Yuqori va pastki chetlari – 2,5 sm, chap va o‘ng – 2,2 sm;

Tezisning asosiy matni uchun ishlatiladigan shrift - Times New Roman, shrift o‘lchami – 12 pt, qator oralig‘i – 1, tekislash – eni bo‘ylab;

Abzats – 1,0 sm (“Tab” yoki “joy tashlash” tugmalaridan foydalanmagan holda);

Matn keyingi qatorga o‘tkamasdan teriladi. Abzats qilishda tabulyatsiya va joy tashlashga ruxsat berilmaydi. Defis (-) va tire (-), shuningdek tipografik qo‘shtirnoq belgilaridan foydalanish (“”) mumkin;

Tezis matniga rasm, grafik, diagramma, jadvallarni kiritmaslik lozim;

Formulalar Microsoft Equation muharririda terilishi kerak;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo tartibida yoki iqtiboslar tartibida joylashtiriladi. Matndagi havolalar kvadrat qavs ichida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi manbaning tartib raqamini ko‘rsatgan holda beriladi.

Tezisning maksimal hajmi - 2 bet.